

"DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDAGI MAQOLLARNING AXLOQIY TAHLILI

Uzoqova Jasmina

Samarqand davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Email: uzoqovaj4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20445814>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning XI asrga oid yirik lingvistik va madaniy merosi hisoblangan "Devonu lug'otit turk" asaridagi o'zbek xalq og'zaki ijodi durdonalari — maqol va matallarning lingvistik hamda axloqiy jihatlarini tahlil qilinadi. Asarda aks etgan mehmondo'stlik, yaxshilikka yaxshilik qaytarish, til odobi va so'z mas'uliyati kabi umuminsoniy qadriyatlar qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqot orqali qadimiy turkiy maqollarning bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyati naqadar yuqoriligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Devonu lug'otit turk, Mahmud Koshg'ariy, turkiy adabiyot, maqollar, xalq og'zaki ijodi, axloqiy tarbiya, til odobi.

Abstract. This article analyzes the linguistic and moral aspects of proverbs and sayings of Uzbek folklore in Mahmud Kashgari's major XI century linguistic and cultural heritage "Devonit lughat at-Turk". Universal human values such as hospitality, returning good for evil, language etiquette and accountability of words reflected in the work are comparatively studied. Through research, the educational value of ancient Turkic proverbs today is scientifically based.

Keywords: Devonu lughat at-Turk, Mahmud Kashgari, Turkic literature, proverbs, folklore, moral education, speech etiquette.

Kirish

Xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, maqol va matallar millatning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan eng ixcham falsafiy janr hisoblanadi.

Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega.

Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Turkiy xalqlar tarixi va tilini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari nafaqat qomusiy lug'at, balki o'sha davr xalq donishmandligini saqlab qolgan nodir xazinadir. Asarga kiritilgan yuzlab maqollar ajdodlarimizning yuksak axloqiy mezonlaridan dalolat beradi. Vaqt karvonlari asrlarni ortda qoldirib o'taveradi, ammo insoniyat tafakkurining durdonalari yillar changida ko'milib ketmaydi. Turk dunyosining buyuk qomusi, XI asrning tengsiz yodgorligi bo'lmish Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari shunchaki so'zlar jamlanmasi emas. U – qadimiy bobolarimizning yurak urishi, ularning hayotiy falsafasi va bizga qoldirgan o'lmas ma'naviy vasiyatnomasidir.

Maqol janrining o'rganilish tarixi Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. O'zining "Devonu lug'atit turk" asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o'rin olgan.

Mahmud Koshg'ariy maqollaridan namunalar

"Devonu lug'otit turk" asaridagi maqollar mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha ijtimoiy va axloqiy yo'nalishlarga bo'linadi:

Asarda insoniylikning eng oliy cho'qqisi sifatida yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarish g'oyasi ilgari suriladi. Bunga «Suv ichirmasga sut ber» maqoli yaqqol misoldir. Mazkur maqol bugungi kunda xalqimiz orasida "Senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil" degan ma'noda keng qo'llanadi. Inson tabiatidagi eng yuksak olijanoblik – unga tosh otganlarga osh otishidir. Qadimiy turkiylar bag'rikenglikni borliqning muqaddas qonuni deb bilishgan.

"Senga suv bermagan, senga yomonlikni ravo ko'rgan kimsaga eng toza, eng to'yimli ne'mating – sutingni tut", deydi hikmat. Bu maqol inson ruhini nafrat botqog'idan qutqarib, uni ezgulik cho'qqisiga olib chiqadi. Dunyoni yovuzlik emas, faqat va faqat cheksiz mehr qutqarishini bobolarimiz qadimdanoq anglashgan. Bu falsafa bag'rikenglik va kechirimlilikni jamiyatning bosh mezoni deb bilishdan dalolat beradi.

Turkiy xalqlarning eng ajralmas qadriyati bo'lgan mehmondo'stlik g'oyasi «Uma kelsa, qut kelar» (ya'ni, «Mehmon kelsa qut kelar») maqolida juda chiroyli ifodalangan. Bilamizki turkiy xalqlar ham biz kabi qadimdan mehmondo'stligi bilan dunyoga tanilgan. "Uma" – ya'ni mehmon, shunchaki qo'noq emas, u xonadonga ilohiy baraka va baxt ("qut") olib keluvchi aziz zotdir.

Maqolda uyingga kelgan mehmonni aslo yomon kurmaslik, aksincha, uni quchoq ochib, bor-bodu bilan kutib olish kerakligi uqtiriladi. Zero, rizqni beruvchi Zot mehmon sabab uyga kutilmagan baraka va shodlikni yo'ldosh qiladi. Bu qadriyat bugun ham o'zbek oilalarining eng go'zal poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Ajdodlarimiz xonadonga kelgan qo'noqni baxt, baraka va rizq keltiruvchi deb bilishgan, uni doimo mamnuniyat bilan kutib olishgan va hech qachon malol olishmagan.

Inson odobining bosh mezoni uning nutqiga bog'liqdir. Donishmandlarimiz buni «Erdam bashi til», ya'ni «Odobning boshidan til» degan hikmat orqali uqtirishgan. Insonning ziynati, uning ichki go'zalligi va komilligi tili orqali namoyon bo'ladi. "Erdam" – fazilat, odob demakdir.

Barcha ezgu fazilatlarining, ma'naviy yetuklikning ibtidosi esa tilni tiymoq va shirinsoz bo'lmoqdir. Mahmud Koshg'ariy davridan buyon eskirib qolmagan bu haqiqat insonga o'z so'zining odatga aylanishni, har bir kalomni aql tarozisida tortib gapirishni o'rgatadi.

So'zlashish madaniyati, so'zning jamiyatdagi qudrati va uning ehtiyotkorona ishlatilishi lozimligi «Tilin tug'mishin tishin yazmas» («Til bilan tug'lganni, tish bilan yechib bo'lmas») maqolida aks etadi. Haqiqatan ham, so'z – ulkan qudrat. Til yordamida bog'langan tugunni, ya'ni o'ylamay aytilgan, kimgadir berilgan asossiz va'da yoki qalbga yetkazilgan jarohatni keyinchalik tish bilan ham yechib, to'g'rilab bo'lmaydi. Bu maqol insonni so'z mas'uliyatini chuqur his qilishga chaqiradi. Bir marta tildan chiqqan gapni ortga qaytarib bo'lmasligini, u inson taqdirini hal qiluvchi kuch ekanligini anglatadi. Bu hikmat inson o'z tili bilan o'ylamay gapirgan nojo'ya gapi oqibatida shunday qiyin ahvolga tushishi mumkinki, keyinchalik uni tish bilan ham yechib, to'g'rilab bo'lmasligini ta'kidlaydi.

«Tulki o'z iniga ursa, ujuz bo'lur» («Tulki o'z uyasiga qarab ulisa qo'tir bo'ladi»). Mahmud Koshg'ariy izohlashicha, «bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi». XI asrda yashab ijod etgan buyuk turkiy tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy o'zining o'lmas «Devonu lug'atit turk» asarida ushbu hikmatni keltirar ekan, unga shunday chuqur ijtimoiy-axloqiy baho beradi: «Bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi». Xalq og'zaki ijodida tulki ayyor, o'z manfaatini ko'zlaydigan, ammo tabiatiga ko'ra o'z inini, yashash joyini himoya qiladigan jonivor sifatida tasvirlanadi. Biroq, hatto tabiatning eng xudbin Maxluqi ham o'z uyasiga qarab hurmaydi, unga zarar yetkazmaydi yoki undan nolimaydi. Agarda tulki o'z iniga qarab ulisa yoki unga qarshi tajovuz qilsa («ursa»), tabiat qonunlariga qarshi chiqqani uchun jazo tariqasida «ujuz» — ya'ni ma'nan va jismonan tuban, qo'tir holatga keladi. Koshg'ariy bu obraz orqali insonlar jamiyatidagi eng og'riqli illatni ochib beradi. Insonning «ini» — bu uning tug'ilib o'sgan yurti, kindik qoni to'kilgan tuprog'i, unga tarbiya bergan eli va ajdodlaridir.

Yana aytishimiz mumkinki, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida 400 dan ortiq qadimgi turkiy maqollar jamlangan bo'lib, ulardan 250 tadan ortig'i bugungi kunda ham o'zbek tilida faol qo'llanadi. Iqbol Mirzo (Mirzaaliyev) o'zining ilmiy ishida ushbu maqollarning tilimizga tarixiy ko'chishi va semantik transformatsiyasini atroflicha ko'rsatib bergan. Misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Bu guruhdagi maqollarning XI asrdagi ko'rinishi ham, bugungi kundagi talaffuzi va ma'nosi ham deyarli bir xil saqlangan:

Qadimgi shakli: «Kishi alasi ichg'aru, yilqi alasi tashg'aru.»

O'zbekcha muqobili: «Kishi olasi ichida, yilqi olasi tashqarida.» Insonning qandayligini uning ichki dunyosidan (qalbidan), hayvonning qandayligini esa uning tashqi ko'rinishidan bilish mumkin.

Qadimgi shakli: «Tashg'aru qusa, ichg'aru yag'iy.»

O'zbekcha muqobili: «Tashqaridan do'st, ichkaridan dushman.»

Qadimgi shakli: «Tag' tag'qa qavushmas, kishi kishiga qavushur.»

O'zbekcha muqobili: «Tog' tog' bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar.»

Qisqa qilib aytganda, maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

Maqollar to'plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo'lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqot odobi masalalariga oidlarining o'zi ichki tasniflashda oz so'zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso'zlik, to'g'ri so'zlash, mushohadakorlik, vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokazo mavzularni o'z ichiga oladi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi har bir maqol va matal komil inson g'oyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu qadimiy hikmatlar asrlar o'tsa-da, o'zining dolzarbligini va tarbiyaviy ahamiyatini aslo yo'qotmagan, aksincha, bugungi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. «Devonu lug'otit turk» asaridagi har bir maqol – asrlar sinovida toblangan olmos donasidir. Mahmud Koshg'ariy bizga shunday ma'naviy meros qoldirdiki, undagi har bir so'z bugun ham hayotimiz yo'llarini yorituvchi mayoq bo'lishga qodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "O‘zbek xalq maqollari" X.Suvonqulova "Adabiyot uchqunlari", Toshkent. 2014.
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I-III tomlar (Tarjimon: S. Mutallibov). – Toshkent: Fan, 1960–1963.
3. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy tilning leksikasi (Devonu lug‘otit turk materiallari asosida). – Toshkent: Akademnashr, 2017.
4. Madvaliyev A. O‘zbek xalq maqollari va ularning leksik-semantik xususiyatlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Kashgari M. Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lughat at-Turk) / Edited and translated with Introduction and Indices by R. Dankoff in collaboration with J. Kelly. – Harvard: Harvard University Printing Office, 1982–1985.
6. Ziyouz portal. Mahmud Koshg‘ariy hikmatlari va turkiy maqollar. [Elektron resurs]. URL: ziyouz.com (Murojaat sanasi: 22.05.2026).
7. Iqboljon Mirzakarimovich Mirzaaliyev — “Devonu lug‘otit turk” maqollari bo‘yicha eng yirik va maxsus dissertatsiyani yoqlagan olim. U 2020-yilda “Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi (“Devonu lug‘ati-t-turk” materiali misolida)”